



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OLMOSH SO'Z TURKUMI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 2-
bosqich talabasi.

M. Xudayarova

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10784396>

ARTICLE INFO

Received: 28th February 2024

Accepted: 05th March 2024

Online: 06th March 2024

KEYWORDS

Kishilik, o'zlik, ko'rsatish, so'roq,
nisbiy olmoshlari, belgilash,
bo'lissizlik, guman.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida olmosh so'z turkumining qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

Olmosh – o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ham mustaqil so'z turkumi bo'lib, ot, sifat va son o'rnila ishlataladi. Olmoshlarning ma'nosi umumlashgan bo'lib, ular predmet, belgi va miqdorni ko'rsatish uchun xuzmat qiladi. Olmoshning konkret ma'nosi nutaqda, kontekstda aniqlanadi. Masalan: Karim talaba, u institutga bu yil kirgan. – Карим студент, он поступил в институт в этом году. – Karim student, ol institutqa biyil kirgen.

Olmoshlar ma'no xususiyatlariga ko'ra o'zbek tilida 8 turga, rus tilida 9 turga, qoraqalpoq tilida esa 8 turga bo'linadi. Ular:

№	O'zbek tilida	Rus tilida	Qoraqalpoq tilida
1	Kishilik olmoshlari	Личные местоимение	Betlik almasiqlari
2	O'zlik olmoshi	Возвратное местоимение	O'zlik almasig'i
3	Ko'rsatish olmoshlari	Указательные местоимение	Siltew almasiqlari
4	So'roq olmoshlari	Вопросительные местоимение	Soraw almasiqlari
5	Belgilash-jamlash olmoshlari	Определительные местоимение	Belgilew almasiqlari
6		Относительные местоимение	Ja'mlew almasiqlari
7	Bo'lissizlik olmoshlari	Отрицательные местоимение	Bolimsizliq almasiqlari
8	Gumon olmoshlari	Неопределённые местоимение	Belgisizlik almasiqlari
9		Притяжательные местоимение	



O'zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi olmoshlar shakli, turlanishi va boshqa so'zlar bilan birikib kelishi jihatidan bir biridan jiddiy farq qilsa ham, bajaradigan vazifalari jihatidan o'zaro o'xshash.

Kishilik olmoshlari – личные местоимение - betlik almasiqlari – men, sen, u, biz, siz, ular; я, ты, он (она) (оно), мы, вы, они; men, sen, ol, biz, siz, olar. Rus tilida kishilik olmoshlari turlanganda, ularning boshlang'ich shakli butunlay o'zgarib ketadi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida esa, kishilik olmoshlari turlanganda ham o'z shaklini saqlab qoladi. O'zbek tilida sen olmoshi stilistik maqsadda –lar affiksi bilan qo'llanishi ham mumkin. Bunday paytda, asosan, mensimaslik, istehzo ma'nolarini anglatadi. Rus tilidagi ты esa bunday xususiyatga ega emas. Qoraqalpoq tilida kishilik olmoshlari – almasiq atliqlar deb ham nomlanadi. Rus tilida III shaxs kishilik olmoshi birlikda rodga qarab 3 shaklga ega bo'ladi. Он (мужской род), она (женский род), оно(средний род). Bu olmoshlarning rodi otga qarab belgilanadi.

O'zlik olmoshi – возвратное местоимение – o'zlik almasig'i – o'zbek tilida - o'z, rus tilida – себя, - qoraqalpoq tilida – o'z. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi o'zlik olmoshi otlar bilan birikib kelganda rus tilidagi свой olmoshiga to'g'ri keladi. Masalan: O'z uyim – свой дом – o'z uyim. O'z qizim – свой дочь – o'z qizim kabi. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi o'zlik olmoshi egalik affikslari bilan qo'llanganda rus tilidagi сам определительные местоимениega to'g'ri keladi. Rus tilidagi сам rod, son va kelishiklarda o'zgaradi. Masalan: U qiz yosh bo'lsa ham hamma topshiriqlarni o'zi bajaradi. – Эта девушка хотя ещё молодая, но все поручение выполняет сама. – Ol qiz jas bolsa da, ha'mme tapsirmalardi o'zi isleydi.

Ko'rsatish olmoshlari – указательные местоимение – siltew almasiqlari – u, bu, shu, o'sha, mana bu, mana shu, ushbu, bunday, shunday, shunaqa, shuncha; это, этот, тот, вот, вот этот, таков, такой, столько, сей; bul, sol, usi, ol, a'ne, mine, a'nekey, minekey, ana, mina, anaw, minaw kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Ruscha ko'rsatish olmoshlari мужской, женский va средний rodlarni ko'rsatadi va o'zlari tobe bo'lgan ot bilan rod, son va kelishikda moslashib keladi. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko'rsatish olmoshlarida esa ot bilan moslashmaydi, balki bitishuv yo'li bilan birikadi. Masalan: этот мальчик – bu bola – bul bola; эта женщина – bu ayol – bul hayal; этим людям – bu kishilarga – bul kisilerge kabi.

So'roq olmoshlari – вопросительные местоимение – soraw almasiqlari – kim? nima? qanday? qaysi? necha? nechinchi? qancha? nega? nimaga? qani?; кто? что? какой? который? чей?; kim? ne? qanday? qaysi? neshe? neshinshi? qansha? qayda? qayerde? kabi so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida otga nisbatan qo'llanuvchi so'roq olmoshlari birlig va ko'plikda ishlatilsa, rus tilida faqat birlikda ishlatiladi. Masalan: Kim?, kimlar? nima?, nimalar? – кто?, что? – kim?, kimler?, ne? neler? kabi. So'roq olmoshi bilan odatda, so'roq gap tuziladi.

Belgilash olmoshlari - определительные местоимение - belgilew almasiqlari – hamma, barcha, bari, butun, har, har bir, har qanday, har qaysi; все, весь, вся, всё, каждый, всякий; ha'rkim, ha'rqiysi, ha'rna'rse, ha'rbir, ha'rqanday, ha'rqaşan kabi so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek va qoraqalpoq tilidagi belgilash olmoshlari o'zgarmaydi, rus tilidagi belgilash olmoshlari esa o'zgaruvchi ekanligi bilan farqlanadi. Bu tillardagi belgilash olmoshlari tuzilishi



jihatidan ham farq qiladi. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi belgilash olmoshlari ikki so'zdek yoziladi, lekin aslida qo'shma so'zga teng, rus tilidagi olmoshlar esa sodda so'zga teng.

Относительные местоимение – ja'mlew almasiqlari – который, какой, кой, кто, что, сколько, чей, каков; bar, barliq, ba'ri, ba'rshe, ja'mi, ha'mme, pu'tkil, pu'tin, gu'lla'n, tamami, duyim kabi so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek tilida bu olmoshlar belgilash olmoshlariga qo'shilib ketgan. Rus va qoraqalpoq tillarida esa bu olmoshlar ajratib ko'rsatiladi. Qoraqalpoq tilida ja'mlew almasiqlari ma'no jatidan umumiylikni, jamlashni ko'rsatgani uchun ko'plik qo'shimchalarini talab qilmaydi¹.

Bo'lishsizlik olmoshlari - неопределённые местоимение - bolimsizliq almasiqlari – har 3 tilda ham so'roq olmoshlaridan yasaladi. O'zbek va qoraqalpoq tilida so'roq olmoshi oldida inkor bildiruvchi hech/ hesh so'zi ishlatiladi, rus tilida esa so'roq olmoshi oldidan ни-yuklamasi qo'shiladi. Masalan: hech kim – никто – heshkim, hech nima – ничто – heshzat, hech qanday, hech qaysi – никакой – heshqanday, heshqaysi kabi.

Gumon olmoshlari - неопределённые местоимение - belgisizlik almasiqlari – har 3 tilda ham so'roq olmoshlaridan yasaladi. O'zbek tilida so'roq olmoshlarining old tomoniga alla- yoki oxiriga -dir qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: allaqachon, allakim, allanima, allaqanday, allaqancha, kimdir, nimadir, qandaydir kabi. Rus tilida esa so'roq olmoshining oldidan не- pristavkasi qo'shiladi. Masalan: некто, нечто, некоторый, несколько; кое-кто, кое-что, ето-то, что-то, кто-либо, что-либо кто-нибудь, что-нибудь, какой-нибудь kabi. Qoraqalpoq tilida gumon olmoshlari a'llekim, a'llene, bir, birew, geybir, geypara, bazi kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan: A'lleneden setem alip oyansa, ba'ha'rgi qara suwiqtan denesi muzlap, qaltirap atir eken (K. S).

Притяжательные местоимение – egalik olmoshlari faqatgina rus tiliga xos bo'lib, bu olmoshlar anglatgan ma'no o'zbek tiliga qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlari bilan va ot so'zga egalik affiksini qo'shish bilan beriladi. Masalan: мой карандаш – mening qalamim, твоя ручка – sening ruchkang kabi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, olmoshlar har o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida bir-biridan ba'zida qisman, ba'zida esa juda katta farq qiladi. Biz yuqorida o'zbek tilining 7ta, rus tilining 9ta, qoraqalpoq tilining esa 8ta olmoshini bir-biridan farqli va o'xshash tomonlarini ko'rib chiqdik. Har bir tilda o'ziga xoslik, o'xshashlik, farqlilik mujassam.

References:

1. Azizov O va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.1965.
2. O.Azizov va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1986.
3. Da'wletov A va boshqalar Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. No'kis: "Bilim" nashriyoti.2010.

¹ Da'wletov A va boshqalar. Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. – No'kis, 2010. - B. 129.